

TARBIYA FANINI YARATISH VA O'QITISH, TARBIYA FANI TUSHUNCHASI

Мажидова Нодира Ашуровна

Бухоро вилояти Гиждувон тумани

1-умумий урта таълим мактаби тарбия фани уқитувчиси

Annotatsiya: *ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 23 avgust kungi videoselektor yig'ilishida "Tarbiya" fanini yaratish va o'qitish tashabbusi, tarbiya fani xaqida tushuncha va tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari to'g'risida yozilgan.*

Kalit so'zlar: *ma'lumot, axloq, sifat, tadbir, harakat, intilish, oila, maktab, bolalar, yoshlar, yetakchi, goya, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya, jarayon.*

Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda "Tarbiya" atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga karatilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniya va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviyaxloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiyma'naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 23 avgust kuni bo'lib o'tgan xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida "Tarbiya" fanini yaratish va o'qitish tashabbusi bilan chiqdi. Davlatimiz rahbarii maktablardagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etib, «Milliy g'oya»,

«Odobnoma», «Dinlar tarixi», «Vatan tuyg'usi» kabi fanlarni birlashtirgan holda, yagona «Tarbiya» fanini joriy qilish zarurligi qayd etdi.

“Tarbiya” fanini yaratish va o'qitish tashabbusi ham nihoyatda katta ahamiyatga ega. Fikrimizcha, yangi fanning asosini, birinchidan, o'zbek tilini bilish ustuvor vazifasi, ikkinchidan, xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish tashkil etishi lozim. Nega deganda, davlat tili bilan xalq og'zaki ijodi milliy g'oya va tarbiyaning ham asosidir.

Har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rish kerak. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim ...

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish joizki, insonning boy ma'naviy – tarixiy jarayonida samarali foydalanish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, xalqparvar, yuksak ma'naviyatli etib voyaga yetkazish, insoniy fazilatlarni singdirishda Tarbiya ishlarni to'g'ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jarayonini tashkil etishning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- maqsadning aniq mezonlarda ifodalanishi;
- faoliyat maqsadini amalga oshirishda xizmat qilishi;
- bolalar tarbiyasidagi faoliyatni o'qituvchi, ota – ona va jamoa bilan hamkorlikda boshqaruvni ta'minlash muhimdir.

Tarbiya jarayonini tashkil qilish va uning salohiyatini oshirish bola qalbida insoniy fazilatlarni singdirish ko'p jihatdan tarbiyachi-tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining matbuot xizmati
2. <https://fayllar.org/1-mavzu-tarbiya-fanini-oqitish-metodikasi-fanining-asosiy-maqs.html?page=25>
3. <https://pravacheloveka.uz/oz/news/the-initiative-to-create-and-teach-discipline-is-very-important>
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tarbiya>